
tikuvchilik tsexi faoliyati

Yaqinda foydalanishga topshirilgan va bir guruh imkoniyati cheklangan shaxslarga tuhfa etilgan turar joy binosi oldida tikuvchilik sexi faoliyat boshladi. "Far Mohinur tekstil" MChJ rahbari M.Boboqulovning ta'kidlashicha, tikuvchilik sexi ishlashga layoqati bor nogironlar, ularning oila a'zolari va kam ta'minlangan oilalar farzandlarini ish bilan ta'minlash maqsadida barpo etildi. Tsexda hozirda 18 nafar xotin-qizlar ish boshlagan bo'lsa, kelgusida ular soni 35 nafarga etkaziladi.

SURATDA: tikuvchilar Nargizaxon Najmiddinova va Nafisaxon Abdullaeva.

2018-06-04 17:40:14